BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA UZLUKSIZ KASBIY METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich
Buxoro Innovatsiyalar Universiteti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, v.b dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablaridan kelib chiqib, ertangi istiqboli talablarga javob bera oladigan, kreativ faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirish maqsad qilib olingan. Bo‘lajak tarix fanlarini integratsion asosda o‘qitishga, raqamli texnologiyalar asosida multimediyali ilovalar hamda mustaqil ishlashga o‘rgatish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, integratsion, multimediya, interaktiv usullar, modellashtirish, kompetensiya.

KIRISH. Jahonda ta’lim muassasalarida kasbiy va kommunikativ rivojlanishini amaliyotdagi o‘zgarishlarga muvofiqligini ta’minlash, o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quv fanlarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlashga oid pedagogik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Integrativ yondashuv - turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, birlashtirish va kompetentsiyalarni baravar rivojlanishini nazarda tutadi. “Integratsiya” o‘quv maqsadi sifatida o‘quvchiga dunyoning alohida qismlarining tizim sifatida bog‘liqligini aks ettiruvchi bilimlarni berish, talabalarni o‘rganishning dastlabki bosqichlaridan boshlab dunyoni barcha elementlarini o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yagona yaxlitlik sifatida tasavvur qilishga qaratilgan.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilar o‘quv jarayonida tarix fanining o‘qitish metodikasida predmetlararo bog‘liqligini ko‘rmaydilar, usiz tabiat va jamiyatning ko‘plab hodisalarining mohiyatini tushunish hamda to‘liq o‘rganish mumkin emas. “Integratsiya” tushunchasining o‘zi zamonaviy jamiyat rivojlanishida keng qo‘llaniladi. Integratsiya jarayonlari allaqachon o‘rnatilgan tizimlar doirasida sodir bo‘lishi mumkin - bu holda ular uning yaxlitligi va tashkiliy darajasining oshishiga, shuningdek, ilgari bog‘liq bo‘lmagan elementlardan yangi tizimning paydo bo‘lishiga

olib keladi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integratsion yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish, metodikalarini takomillashtirish dolzarb masalalaridan biridir.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish istiqbollari tabiat va jamiyatning ko‘plab hodisalari mohiyatini tushunish, yoshlarning ijtimoiylashuvi va madaniylashuvi mamlakatning kelajagini belgilashi, milliy madaniy an’analar, qadriyatlarni saqlashi va rivojlanishining nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, uzluksiz kasbiy rivojlanishda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy o‘sishini tadqiq etishda integratsion yondashuv dolzarb vazifaga aylanmoqda.

“Respublikamizda asosiy strategiyalaridan biri sifatida Ijtimoiy-gumanitar fanlar - tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishilmoqda”.[1] O‘z sohasida dunyodagi eng salmoqli ensiklopediyalardan biri, Markaziy Osiyoda yagona va O‘zbekistonda ilk marotaba yaratilgan “Jahon falsafasi qomusi” tayyorlanib, 2020 yilda, yangi davrning mahsuli sifatida chop etilgani ham buning yaqqol misolidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni[2] va Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori[3] qabul qilindi.

Qarorga muvofiq bo‘lajak mutaxassis va pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning ilmiy asoslarini yaratish belgilab olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida milliy o‘quv dasturi asosida fanlarni o‘qitish metodikasi oliy ta’limda professor-o‘qituvchilardan katta mahorat talab etilmoqda, bu esa o‘z navbatida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy ijodiy-tadqiqotchilik, amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirish o‘qitish metodikasini hamda kreativlilik kompetentlik darajasini yanada rivojlantirishga undamoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlanishda professor-o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida interfaol ta’lim texnologiyalari va strategiyalarini tadbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borishga sabab bo‘lmoqda.

Ta’lim mazmuniga integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish asosi sifatida fanlar integratsiyasi muammosining dolzarbligi turli jihatlariga oid tadqiqotlar Yan Amos Komenskiy grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotning o‘zaro bog‘liqligi V.F.Odoyevskiy, K.D. Ushinsky V.V. Davydov, A.V. Zaporojets, Yu.A. Samarin, D.B. Elkonin, B.P. Yusov, D.B. Kabalevskiy, E.B. Abdullin, E.V. Nikolaeva, N.A.Menchinskaya, B.M.Kedrov M.S.Pakning O.M. Sichivitsa, N.T. Kostyuk va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integratsion yondashuv asosida tarix fanini o‘qitish metodikasida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari L.S.Rubinshteyn, A.Maslou, A.Leontev, M.G.Davletshin, E.G‘oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safaev, Z.T.Nishonova[4] kabilar tomonidan o‘rganilgan.

---

[1]“Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги ПФ-6108-сон Фармони

[2]“Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги ПФ-6108-сон Фармони

[3]Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 17 январдаги 25-сон қарори

[4](Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2013. – 713 с.; Маслоу А. Психология бытия. Пер. с англ. О.О. Чистякова. – Рефл-бук: Ваклер, 1997. – 84 с.; Леонтьев А.А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.; Давлетшин М.Г. Кобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.; Гозиев Э.Г. Психологические основы развитие самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф. дис. … док.псих.наук. – Т., 1991. – 38 с.; Каримова В. Психология. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 204 б.; Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности. Автореф. дис. … док.псих. наук. – Т., 2001. – 41с.; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой

Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni oshirish masalasiga pedagog olimlardan Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, R.A.Mavlyanova, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, B.Abdulayeva, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, Q.Husanboyeva, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriev, Sh.Mardonov, D.Ro‘ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Ye.Shiyanov kabi pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida keltirib o‘tilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv predmetlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Shu sababli pedagoglarning o‘qitish metodikasidagi integrasiyon yondashuv mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

Bir qancha pedagogik adabiyotlarda integratsiya ta’limning maqsadi va vositasi sifatida ham ko‘rib chiqilgan. Shunday qilib “integratsiya” tushunchasi ma’nosini aniqlashda turli xil yondoshuvlarning metodik tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimlar, tadqiqotchilar uning qollanilishini turlicha talqin qilishadi.

Integratsiya jarayoni pedagogik g‘oyasining rivojlanishiga, ilmiy bilimlarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Integratsiya jarayoni ta’limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng asosiy shakli hisoblanadi. Shuni ta’kidlash mumkinki, integratsiya jarayonining ildizlari klassik pedagogikaning uzoq o‘tmishiga taqaladi va fanlararo aloqalar g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Fanlararo aloqalar g‘oyasi o‘quv manbalarining mazmunida tabiatning yaxlitligini aks ettirish yo‘llarini izlash jarayonida paydo bo‘ladi. Buyuk didaktik olim Yan Amos Komenskiy shunday ta’kidlaydi: “o‘zaro aloqada bo‘lgan hamma narsa bir xil aloqada o‘qitilishi kerak”. Keyinchalik ko‘plab o‘qituvchilar uni ishlab chiqish va umumlashtirish orqali fanlararo aloqalar g‘oyasiga murojaat qilishadi.

NATIJALAR. Tarix fanlarini o‘qitishda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘qish jarayonini qamrab olgan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va integratsion yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish mexanizmi sanaladi.

Bunda tarix fanlarini o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida talabalarning an’anaviy o qitish bilan bir qatorda integrativ o‘qitishning uyg‘unlashgan, amaliyot jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlarini joriy etish ta’lim muassasalarining o‘zaro teng huquqli hamkorligi asosidagi ta’lim turlari integratsiyasi hamda fanlararo, integratsion kurslar va bo‘limlararo uzviylikni ta’minlashga asoslanmoqda.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilari o‘qitish jarayonida, o‘quv dasturi doirasida tarix fanlarini o‘qitishning integratsiyalashgan fanlar kesimida jadvallar, diagrammalar, xaritalar bilan ishlash, illustrasiyalar tayyorlash multimediyali ilovalar yaratish bo‘yicha o‘ziga xos metogikalar asosida kompetensiyalarini yanada rivojlantiradilar.

O‘liy ta’lim professor-o‘qituvchilarining ijodiy izlanishlari natijasida talabalar bilan ishlashda dars jarayonida o`ziga hos metodlar asosida tarix va hayotni o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlik talabalarning bilim saviyasining ortishiga olib keladi.

Tarix fanlarini o‘qitishda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi va o‘qitish metodlarini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qancha sabab va omillar aniqlandi. Shu bilan birga ilmiy-tadqiqot natijalari tarix fanlarini integratsion aloqadorlikda o‘rganish uchun optimal uslublarni tanlashning quyidagilar muhimligini ko‘rsatib berdi:

- ta’lim jarayonida amal qiladigan qonuniyatlar va undan kelib chiqadigan ilmiy-pedagogik tamoyillar bilan;

молодежи: Автореф. дис. … доктора псих.наук. – Т., ТГПУ, 2006. – 38 с.; Нишонова З.Т. Мустақил ижодий фикрлашни шакллантиришнинг психологик асослари: Псих.фан.док. … дис. – Т., 2005.– 391 б.)

- tarix fanining mazmuni va uslublari bilan umumiy va xususiy holda (umumiy va xususiy pedagogikaga asosan);

- o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan;

- milliy o‘quv dasturi va u asosidagi o‘quv-uslubiy majmualar mazmuni va xarakteridan kelib chiqqan holda;

- talabalarning o‘quv imkoniyatlari (jamoaning xususiyatlari, yoshi, psixologik-fiziologik, ta’lim-tarbiyaviy jihatdan tayyorgarlik darajasi va imkoniyatlari) asosida;

- talabalarning imkoniyatlariga (nazariy va amaliy tayyorgarliklari darajasi, ma’lum metod, vositalarni qo‘llash, eng maqbul variantlarni tanlash mahoratlari, qiziqish va ishtiyoqlari, muloqot madaniyati, shaxsiy sifatlari va h.k.) ko‘ra.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishida umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablaridan kelib chiqib, tarix fanlarini og‘zaki o‘qitish metodlaridan voz kechgan holda, tarix fanlarini integratsion ta’lim asosida o‘qitishga, axborot texnologiyalari asosida multimediyali vositalar hamda mustaqil ishlashga o‘rgatishga etibor qaratish, mutaxasislik va umumkasbiy fanlarning o‘zaro uyg‘un holda o‘qitilishini tashkil etish eng samarali mexanizm bo‘lib, bunda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, shaxsiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish orqali tarix fanlarini o‘qitish metodlarini uzviyligi va izchilligini tahlil etadi.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilar o‘quv jarayonida olgan bilm ko‘nikmalari asosida keyinchalik ish faoliyatida turli metod, metodika va o‘qitish shakllarining turli – tumanligi, samaradorlikka erishishi bilan birga tarixiy voqiyliklarni o‘rganish, o‘sha davrni ongli tushinish va undan saboq chiqarish tarixiy xatolarni takrorlamaslikka o‘rgatadi.

Integratsion ta’lim metodlari o‘zaro xamjixatlilikda pedagogik, turli ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi haqida yaxlit tushinchaga psixologik, tashkiliy, ilmiy, metodik, axborot va boshqa shakllarga bo‘lib tasniflanishi hamda keng qamrovliligi sababli, tadqiqotimiz ob’ekti nuqtai nazaridan o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ijodiy faoliyat elementlarini shakllantirish, qobiliyatini rivojlantirish tarixiy tafakkurning konseptual asoslari tizimini takomillashtirishda axborot kamunikatsion texnalogiyalar asosda-metodik qo‘llab-quvvatlanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda integratsion ta’lim asosida tarix fanlarini o‘qitish metodikalarini loyihalashtirish, talabalarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uzliksiz rivojlanishi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan quydagi namunalarni ko‘rsatish mumkin:

- **Ilmiy-metodik materiallar**: Professor-o‘qituvchilar uchun tarix va ijtimoiy fanlar mavzusida elektron darsliklar, multimediya materiallar, veb-sahifalar va mavzular bo‘yicha tayyorlangan yordamchi materiallarni taqdim etish.
- **Integratsion yondashuv:** Tarix fanlarida fanlararo va fan mavzulari bo‘yicha integratsion yondashuv.
- **Innatvsion o‘qitish texnologiyalari**: Virtual reallik, interaktiv dasturlar, qo‘llash kompyuterlari va boshqa texnologiyalarni o‘rnatish orqali fanlarning mavzularini juda yondosh o‘rganish va o‘qitish.
- **Ma’lumot texnologiyalari**: O‘qituvchilar o‘quv dasturi asosida yangi texnologiyalar asosida materiyallar ishlab chiqish, kritik va kryativ tahlil qilish.

Integratsion yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy o‘qitish metodikasini takomillashtirish kursi asosida umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan metodik talablaridan kelib chiqib, integratsion yondashuv asosida turli talimiy metodlar asosida axborot texnologiyalari hamda mustaqil izlanishlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Bu orqali talabalarning tafakkur dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA. Interatsion asosidagi ta’limning maqsadi – ijodiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ijodiy kasbiy metodikalarini shakllantirishdan iborat. Muayyan vaziyatni tahlil qilish quyidagi vazifalarni hal etish uchun ma’ruzada olingan yangi bilimlarni mustahkamlash, ayrim

kasbiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish va integratsion yondashuv asosida uzluksiz kasbiy metodikalarini rivojlantirish.

Bunda milliy o‘quv dasturi bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan minimal talablar, har bir mavzuga nisbatan aniqlanib, unda kurslararo bog‘lanishlarning o‘rni belgilanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, integratsion yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish orqali milliy o‘quv dastur asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash va muntazam ravishda metodikalarini yangilashga qaratilgan.

Integratsion yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining ilmiy izlanuvchanligini oshirib borish shuningdek, “Xayot davomida o‘qish” tamoili asosida kasbiy rivojlanishi va iqtidorini namoyon qilishi, o‘z kasbiy faoliyatida, ijodiy yutuqlarga erishish yo‘lari ilmiy metodik taxlil qilishga yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. 233-b.
2. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. pedagogika fanlari doktori (DSc) diss..aftoref. T.: 2021. – 70 b.
3. T.Toshpo‘latov, Y.G‘afforov. Tarix o‘qitish metodikasi. T.Turon-Iqbol, 2010. –39-40 b.
4. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. diss. – T., 1997. – 256 b.;
5. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok. – T., 2007. – 39 b.
6. Shonazarov Q.R. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. liss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b
7. Jo‘raev N. “Tarix falsafasining nazariy asoslari”.-T.: “Ma’naviyat” 2008. 164 b
8. Педагогика дополнителного образования. Психолого-педагогическое сопровождение детей отв. ред. Л.В.Байбородова. – М.: “Юрайт”, 2016. – 413 с.
9. Вагин А.А. Методика обучения истории. –М.: Просвещение, 1972. – 351 с.